

Qadrli o'quvchi!

Alifbe – sizning birinchi va eng sevimli kitobingiz. Bu kitob sizga sehrli tovush va harflar olami, so'zlar dunyosi haqida ko'p narsalarni gapirib beradi. Siz bu kitobdan o'qishni, yozishni o'rganib olasiz. Shu bilan birgalikda qiziqarli topshiriqlarni bajarasiz. O'rganganlaringiz sizga keyingi bilimlarni egallashingizda yo'lchi yulduz bo'ladi.

Sizga omad yor bo'lsin!






O'quvchimga tilaklarim

Men shunday kitob –
Betlarim – oftob.
Men – senga o'rtoq,
O'qishda hamroh.

O'rganib oz-oz,
"Vatan" so'zin yoz.
O'qigin, tolma,
Orqada qolma!

Kavsar Turdiyeva





Salom, maktab

Yetti yoshga to'ldim men,
Maktab sari keldim men.
Salom, maktab, jon maktab,
Quchog'ingga ol, maktab.

O'zim yaxshi bolaman,
Eng a'luchi bo'laman.
Ona yurtim dilbandi,
Istiqlol farzandiman.

Zahro Hasanova



Ulug‘imsan, Vatanim!

Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim.
O‘zimga bek, o‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim.
Yolg‘izim, yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim!

Muhammad Yusuf

